

PEDAGOGIK MAHORAT

6(1)
2026



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2026-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 6, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)

PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firusa Raxmatullova (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Prof. Qahramon R. Tuxsanov

Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G. Jumaev

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova

PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov

PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev

PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade

Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva

PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
	UMURZOQOV Feruzjon Farxodovich	Salbiy axborot ta'siriga qarshi assertivlikni shakllantirish yo'llari	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
	RADJAPOVA Feruza Abdullayevna	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik madaniyatni shakllantirishning zamonaviy konsepsiyasi	12
	QOSIMOV Shavkat Urolovich	Talabalarining pedagogik faoliyatiga tayyorlash bosqichlari jarayondagi amaliyotlarni roli va ta'sir etuvchi omillar	17
	NURULLAYEV Abduhamid Ro'zimboyevich	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda nazariya va amaliyot jarayoni uyg'unligi	22
	ERNAZAROV Alisher Ergashevich, ABDULLAYEVA Mohira Amanovna	Intellectual rivojlanish va shaxsiy barkamollik o'rtasidagi didaktik bog'lanish	26
	ABDULLAYEVA Muyassar Isakovna	Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy-metodik faoliyatga tayyorlashda neyrotexnologiyalardan foydalanish	31
	ADIZOVA Sevara Yusupovna	Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak muhandis-texniklarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	37
	AKBAROVA Feruza Uktamjonovna	Bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy pedagogik fikr g'oyalaridan foydalanishning mavjud holati	43
	ALIYEV Islambek Tursinbayevich	Mustaqil ta'lim asosida talabalarining pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari	47
	ALIYEVA Xurshida Shuhrat qizi	Tarix ta'limida stem-integratsiyalashgan ta'lim metodikasining samaradorligi (pedagogik eksperiment natijalari)	52
	AMINOV Pahlavon Hamid o'g'li	Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining didaktik jarayonlarini tashkil etish shart-sharoitlari	58
	DEHQONOVA Mushtariy Sherali qizi	Psixodidaktikaning shakllanishi va zamonaviy ta'limdagi o'rni	65
	DJURAYEVA Dilfuza Nuriddin qizi	Radio pedagogikasi orqali bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish	70
	DURDIYEV Sirojiddin Maqsudbekovich	Harbiylarda mas'uliyat hissini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	74
	ERGASHOVA Muxlisa Azizjon qizi	Oila qurish motivlari fenomenining nazariy-metodologik jihatda tadqiq etilishi	79
	G'AYBULLAYEV Quvonchbek G'olibjon o'gli	Talabalar shaxsini shakllantirishda qadriyatlar tizimining strukturaviy komponentlari	83
	GENJEEVA Ulzada Tanatar qizi	Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	88
	IBRAGIMOVA Gulzoda Nabiyevna, AKROMOV Ilxom Anvar o'g'li	Talabalarni o'yinli texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari	92
	IKRAMOVA Kamola Shavkatovna	Bo'lajak o'qituvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shartlari	96
	ISCHANOV Eldorbek G'ulomdjanovich	O'smirlarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni empirik o'rganish	99
	JUMANOVA Xafiza Xoliqulovna	Tarbiya fani asosida o'qituvchilarda huquqiy bilim, ko'nikma va qadriyatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy tahlili	102
	JUMAYEVA Azizabonu Mo'min qizi	Talabalarni refleksiv kompetensiyasini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy va nazariy asoslari	108

Ilmiy manbalar tahlili pedagogik faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni ham tizimli ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda bu omillar ichki va tashqi guruhlariga ajratiladi. Ichki omillarga motivatsiya, kasbga qiziqish, refleksiv qobiliyat, kommunikativ salohiyat va shaxsiy mas'uliyat kiradi [14], [19]. Tashqi omillar esa ta'lim muhiti, mentorlik sifati, metodik ta'minot, texnologik resurslar va pedagogik amaliyot bazasining holati bilan belgilanadi [5], [9]. Ayniqsa, zamonaviy raqamli ta'lim vositalarining mavjudligi bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda muhim omil sifatida qayd etiladi [7].

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda refleksiya pedagogik faoliyatni rivojlantirishning ajralmas komponenti sifatida e'tirof etiladi. D. Schön refleksiv amaliyot nazariyasida mutaxassisning kasbiy o'sishi o'z faoliyatini tahlil qilish va qayta loyihalash orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi [22]. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirishda reflektiv kundaliklar, mentorlik suhbatlari va o'zaro tahlil mexanizmlarining samaradorligini asoslaydi.

Natija. Kommunikativ va innovatsion komponentlar pedagogik jarayon sifatini oshiradi. Samarali muloqot orqali o'qituvchi talabalarning fikrlarini tushunadi, ularni rag'batlantiradi va darsga faol jalb qiladi. Innovatsion yondashuvlar raqamli vositalar va interaktiv metodlarni qo'llash orqali darsni qiziqarli qiladi va talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan pedagogik jarayon zamonaviy, samarali va talaba markazli bo'ladi.

Baholash va refleksiya pedagogik faoliyatni rivojlantirishning ajralmas qismidir. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etadi. Mentorlar va ustozlarning fikr-mulohazalari, talabalar javoblari va dars sifatini monitoring qilish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Shu bilan pedagogik faoliyat doimiy ravishda takomillashadi va o'qituvchi professional jihatdan rivojlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik faoliyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv bilim va ko'nikmalarning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi, amaliyotga yo'naltirilganlikni oshiradi va shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy o'sishni rag'batlantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik jarayonni aniq va ob'ektiv baholash imkonini beradi va o'qituvchining professional kompetensiyasini oshiradi.

Pedagogik faoliyatni rivojlantirish modeli o'qituvchining individual ehtiyojlariga moslashadi va innovatsion metodlarni qo'llash imkonini beradi. Model nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kommunikativ va innovatsion komponentlar asosida qurilgan bo'lib, o'qituvchiga bosqichmabosqich professional o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Shu orqali o'qituvchi o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshiradi, talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Pedagogik faoliyat samaradorligi nazariy bilimlar, ya'ni pedagogika, psixologiya, metodika va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur bilishni, shuningdek darslarni puxta rejalashtirish, turli pedagogik metodlarni qo'llash hamda interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish kabi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Xulosa. Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvni ta'minlash uchun raqamli vositalar, interaktiv platformalar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur bo'lib, bu jarayon tayyorlov, amaliy, reflektiv, innovatsion va baholash bosqichlarini qamrab oladi hamda o'qituvchining kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. To'xtaxodjayeve M.X. *Pedagogika*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 320 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. Toshkent: Fan, 2006. – 192 b.
3. Ishmuhamedov R.J. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. – 180 b.
4. Egamberdiyeva N.M. *Pedagogik kompetentlik asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 144 b.
5. Musurmonova O. *Kasbiy pedagogika*. – Toshkent: Noshir, 2018. – 256 b.
6. Slavenin V.A., Isayev I.F., Shiyanov E.N. *Pedagogika*. – Moskva: Akademiya, 2002. – 576 s.
7. Podlasy I.P. *Pedagogika*. – Moskva: Vados, 2007. – 576 s.
8. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya*. – Moskva: Logos, 2004. – 384 s.
9. Khan R. *Digital Pedagogy in Practice: Insights from Teacher Training Workshops // Current Perspectives in Educational Research*. – 2025. – Vol. 8, No. 2. – P. 57–70. DOI: 10.46303/cuper.2025.6

10. Shi Y.R., Sin K.F., Wang P.Y. *Teacher professional development of digital pedagogy for inclusive education in post-pandemic era* // Teaching and Teacher Education. – 2025. – Vol. 168. – Article 105230. DOI: 10.1016/j.tate.2025.105230
11. Mahmood R.Q. *Exploring pedagogical effectiveness in teacher education: Insights and challenges* // Journal of Interdisciplinary Studies in Education. – 2025. – Vol. 14, No. 4. – P. 1–26. DOI: 10.32674/tm4f3a78
12. B. R. Kadyrov, *Pedagogik kompetentlik va kasbiy tayyorgarlik asoslari*. Toshkent, Uzbekistan: Fan, 2021. 172-b.
13. V. A. Slastenin, *Pedagogika: professionalnaya deyatelnost uchitelya*. Moscow, Russia: Akademiya, 2013. St-345.
14. A. K. Markova, *Psikhologiya professionalizma*. Moscow, Russia: Znanie, 2016. St-254.
15. L. S. Vygotsky, *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA, USA: Harvard Univ. Press, 1978.
16. N. V. Kuzmina, *Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya*. Moscow, Russia: Vysshaya shkola, 2015.
17. J. Dewey, *Experience and Education*. New York, NY, USA: Macmillan, 1938. 102 p.
18. A. V. Khutorskoy, “Key competencies as a component of personality-oriented education,” *Narodnoe obrazovanie*, no. 2, pp. 58–64, 2019.
19. N. A. Muslimov, *Kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat*. Toshkent, Uzbekistan: Tafakkur Bo‘stoni, 2019. 206-b.
20. U. Nishonaliyev, *Pedagogik amaliyot nazariyasi va metodikasi*. Toshkent, Uzbekistan: O‘qituvchi, 2020. 141-b.
21. M. Ochilov, *Oliy ta’lim pedagogikasi*. Toshkent, Uzbekistan: Fan va texnologiya, 2018. 503-b.
22. [D. A. Schön, *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York, NY, USA: Basic Books, 1983. 135 p.

**BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA
NAZARIYA VA AMALIYOT JARAYONI UYG‘UNLIGI**

*Nurullayev Abduhamid Ro‘zimboyevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası professori*

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda nazariya va amaliyot integratsiyasining pedagogik mohiyati, uning bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lash, pedagogik amaliyot samaradorligini oshirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va metodik tavsiyalar asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

***Kalit so‘zlar:** bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, kasbiy tayyorgarlik, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, kasbiy kompetensiya, pedagogik amaliyot, nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik tayyorlash tizimi, ta‘lim samaradorligi.*

**ГАРМОНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ**

В статье рассматриваются вопросы обеспечения гармонии теоретических знаний и практической деятельности в процессе профессиональной подготовки будущих учителей физического воспитания. В исследовании анализируется педагогическая сущность интеграции теории и практики, её роль в формировании профессиональных компетенций будущих специалистов. Также рассматриваются подходы, направленные на увязку теоретических знаний с практической подготовкой в организации учебных занятий, повышение эффективности педагогической практики и развитие уровня подготовки к профессиональной деятельности. В статье обосновываются педагогические условия и методические рекомендации, служащие обеспечению гармонии теории и практики. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования системы подготовки учителей физического воспитания.

***Ключевые слова:** будущие учителя физической культуры, профессиональная подготовка, гармония теории и практики, профессиональная компетентность, педагогическая практика, теоретические знания, практическая подготовка, компетентностный подход, система педагогической подготовки, эффективность образования.*

**HARMONY OF THEORY AND PRACTICE IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF
FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS**

This article examines the issues of ensuring the integration of theoretical knowledge and practical activity in the process of professional training of future physical education teachers. The study analyzes the pedagogical essence of the integration of theory and practice, as well as its role in the formation of professional competencies of future specialists. In addition, approaches aimed at linking theoretical knowledge with practical training in the organization of educational activities, improving the effectiveness of pedagogical practice, and enhancing the level of preparedness for professional activity are considered. The article substantiates pedagogical conditions and methodological recommendations that contribute to ensuring the harmony of theory and practice. The research results have practical significance in improving the system of training physical education teachers.

***Keywords:** future physical education teachers, professional training, integration of theory and practice, professional competence, pedagogical practice, theoretical knowledge, practical training, competency-based approach, teacher training system, educational effectiveness.*

***Kirish.** Oliy mg‘lumotli mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv rejasidagi talabalarning o‘quv amaliyoti asosiy va tarkibiy qismlardan biridir. Bu o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasining hozirgi kundagi*

muhim talabi bo‘lib hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kasbiy tayyorgarlik muammolarini muhokama qilishda biz tadqiqotni talab qiladigan hal qilinmagan qiyinchiliklarni tg‘kidlaymiz. Ta‘lim tizimi shunchaki "bilim uzatmaydi", balki o‘quvchilarning intellektual, mg‘naviy va kasbiy salohiyatini shakllantirishning murakkab jarayonini o‘z ichiga oladi, shunda ular o‘zlarining o‘zini o‘zi rivojlantirish agentlariga aylanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni hamda 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida amaliyot “4+2” (4 kun oliy ta‘lim muassasasida, 2 kun (reja-grafik asosida) umumta‘lim maktablarida amaliyot o‘tash) tartibida tashkil etilishi belgilab qo‘yilgan. Biz olib borgan ushbu tadqiqotda yuqorida keltirilgan qaror va farmonlar asosiy mezon bo‘lib, xizmat qildi. Shu o‘rinda aytish kerakki “4+2” amaliyot jarayonining tashkil qilinishi ham ta‘lim jarayonini loyihalashning bir ko‘rinishidir. Amaliyot jarayoni orqali bo‘lajak o‘qituvchilar nazariya va amaliyot bir-biriga uyg‘un bog‘likligini his etadilar va bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda muhim jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Bu olimlar aynan jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasini rivojlantirgan: Pavel Frantsevich Lesgaft – jismoniy tarbiya tizimini ilmiy asoslab, nazariya va amaliy mashg‘ulotlarning uzviyligini ko‘rsatgan. Lev Pavlovich Matveyev – sport trenirovkasi nazariyasi va jismoniy tayyorgarlik tizimini ishlab chiqqan. Yuri Verkhoshansky – jismoniy tayyorgarlikning amaliy metodlarini takomillashtirgan. Vladimir Platonov – sport tayyorgarligi tizimi va metodologiyasini ilmiy asosda ishlab chiqqan.

O‘zbekistonda aholining sog‘ligini muxofaza qilish, o‘quvchi-yoshlarning jismoniy kamolotini ta‘minlash eng muhim vazifalardan biridir.

Shu sababli “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunni hayotga singdirishni keng ko‘lamda olib borish uchun jismoniy tarbiya va sport sohasida yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash mas‘uliyati tobora oshib bormoqda

Yangi ta‘lim paradigmasi fuqarolar intellektual va mg‘naviy o‘zini o‘zi rivojlantirish agentlari, voqelikni ijodiy o‘zgartirish uchun g‘oyalar va normalarning tashuvchilari sifatida shakllanadigan ijtimoiy-madaniy makonni shakllantirishni nazarda tutadi. Hayotda yaratish yoki yo‘q qilish maqsadlarini tanlashning axloqiy erkinligi shaxsga tegishli. Inson ega bo‘lgan (yoki yo‘q bo‘lgan) tanlash erkinligi uning xulq-atvorning axloqiy reguliyatorlariga bo‘lgan afzalligiga asoslanadi va insoniyat jamiyatidagi mg‘naviy makon - bu odamlarning mazmunli dunyosi, mg‘naviy yashash joyi bo‘lib, uning qonunlari barcha mamlakatlar fuqarolari tomonidan o‘rganiladi va kuzatiladi, chunki Yer yuzida insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi yoki yo‘q qilinishi ularga bog‘liq. Jamiyatning mg‘naviy salohiyatining ijodiy kuchlarini rivojlantirish ta‘limning vazifasidir. Shuning uchun ta‘lim muassasalariga nafaqat o‘quvchilarga "bilim uzatadigan" xodimlar, balki mutaxassislar kerak. Biz ta‘lim tizimida talabalarning subyekt sifatida rivojlanishini pedagogik qiyinchiliklardan biri deb bilamiz. Yuqorida aytib o‘tilgan intellektual, mg‘naviy va kasbiy rivojlanish maqsadlari yoshlar bilan ishlashda strategik maqsadlar, yg‘ni ideal maqsadlar sifatida tasniflanadi, bu ularni texnologiklashtirishning iloji yo‘qligini va ularni ishchi darajaga aylantirish uchun operatsiyalarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Faoliyat sub‘yekti maqsadlar va ularni amalga oshirish usullarining tashuvchisi ekanligini hisobga olib, biz ta‘lim tizimini shunga mos ravishda modellashtirishni taklif qilamiz. Shu maqsadda biz tizimlarni modellashtirishda e‘tiborga olinishi kerak bo‘lgan tizimni shakllantiruvchi xususiyatlarga e‘tibor qaratamiz:

1. Tarkibi - tizim elementlarining cheklangan ro‘yxati.

2. Tuzilma - tizim elementlari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarmasligi. Bu xususiyat bizning pozitsiyamizni tuzilmani tizimning tashkiliy tarkibi sifatida keng tarqalgan tushunchadan ajratib turadi. Biz tuzilmaning qabul qilingan tg‘rifidan kelib chiqamiz, bu ta‘lim tizimida maqsad hisoblanadi.

3. Funksiya - yagona maqsadlarga erishish texnologiyasi bilan belgilanadigan tizimning dinamik holati. Gumanitar fanlar ta‘limi tizimlarida talabalarning sub‘yektiv rivojlanishi bilan bir qatorda, maqsadlar va ularga erishish usullarini ishlab chiqish kelajakdagi o‘qituvchilar bilan ishlashda professional zaruratdir. Faqat o‘zini o‘zi rivojlantirishga qodir bo‘lganlarga o‘zlarining universitet tajribalarini maktab ta‘lim makonining o‘qitish tizimini modellashtirishga qo‘llay oladilar, bunda ham yosh mutaxassis, ham ularning talabalar sub‘yektga aylanadi, bu esa ta‘lim tizimida sub‘yekt-sub‘yekt munosabatlarini ta‘minlaydi. Bu holda, o‘qitish tizimini (universitetda) yangi sifat holatiga - o‘qitishga - ekstrapolyatsiya qilish mexanizmi ijodiy pedagogik fikrlashni rivojlantirishni talab qiladi, bu esa muayyan ta‘lim muassasalaridagi talabalar (va o‘qituvchilar) o‘zini o‘zi rivojlantirish sub‘yektiga aylanadigan yangi vaziyatlarda gumanitar ta‘lim tizimlarini modellashtirishga ijodiy va konstruktiv yondashuvni nazarda tutadi. Bunday tizimlarni

modellashirish ham oliy ta’lim uchun yechim talab qiladigan pedagogik muammodir. O’qituvchilik mutaxassisligiga ixtisoslashgan oliy o’quv yurtlarida to’plangan tajribalarga, ilmiy-uslubiy qo’llanmalarga, ilgari surilgan g’oyalarga, asoslanib, pedagogik amaliyotning quyidagi xarakterlarini ajratish mumkin.

Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik amaliyotning ta’limiy xarakteri: pedagogik amaliyot talabalarning nazariy tayyorgarligini boyitadi, olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga, amaliy vazifalarni hal qilish uchun o’rganilayotgan fanning nazariy qoidalaridan foydalanishga imkon beradi.

Pedagogik amaliyotning ta’limiy xarakteri samarasi ko’pincha oliy o’quv yurti va maktabning o’zaro aloqasi bilan, olimlar, uslubshunoslar va o’quv yurti pedagoglari jamoasi hamkorligi hamda ular mehnatida fan va ilg’or pedagogik tajribada yutuqlarining qo’llanish darajasi bilan belgilanadi.

Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik amaliyotning tarbiyalovchi xarakteri: pedagogik amaliyot o’sib kelayotgan yosh avlodni o’qitish va tarbiyalashda, yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarish, mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda bo’lajak o’qituvchi uchun birinchi jiddiy sinov bo’lib hisoblanadi. Bo’lajak o’qituvchining kasbiy pedagogik fazilatlarining shakllanishiga amaliyot davridagi o’z-o’zini tarbiyalash va o’z ustida mustaqil ishlashga ham faol ko’maklashadi. O’z-o’zini tarbiyalash milliy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi bo’lib hisoblanadi va o’z navbatida tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorlashda pedagogik amaliyotning rivojlantiruvchi xarakteri: pedagogik amaliyot talabalarning ruhiy holat va xususiyatlarining rivojlanishiga yordam beradi; o’qituvchining o’z faoliyatiga nisbatan diqqatini oshirishga, bu esa o’z kasbiga kasbiy munosabatini shakllantirishga, ta’limiy yoki tarbiyaviy tadbirlarni ma’lum mantiqqa, tizimga solishga intilishini kuchaytirish bilan bir qatorda atrofdagi kishilarga nisbatan ularda xotira, tafakkur, tasavvur, irodani rivojlantirishga, o’z fanida uchrab turadigan turli atamalar, formulalar, tenglamalar tushunchalarni chuqurroq tahlil qilishga, o’z faniga ijodiy yondashishga olib keladi.

Pedagogik amaliyot davomida talabalar ba’zi turdagi tadqiqot ishlarini, darsni psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilishni, o’quv-tarbiyaviy tadbirlar o’tkazishni, sinf jamoasini va o’quvchi shaxsini jamuljam tarzda o’rganishni, o’quvchilar bilan tajriba ishlarini olib borishni, o’zidan katta hamkasabalarining, moxir pedagoglarning ishlarini bevosita kuzatishni, ilg’or pedagogik tajribalarni o’rganishni yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llashni ham ko’zda tutadi.

Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorlashda o’quv amaliyotining maqsadi va vazifalari: butun o’quv jarayonlarida egallagan nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarni sinash hamda ularni hayotda qo’llashni talabalarga o’rgatish. O’qituvchi, murabbiy va tashkilotchi ixtisosligini egallashda davlat hamda jamoatchi sport tashkilotlarining, ayniqsa ularning quyi bo’linmalari (tuman, shaxar sport tashkilotlari, sportklublar, sog’lomlashtirish markazlari, jismoniy tarbiya jamoalari, aholi turar joylari) ish faoliyatlari bilan amaliy jihatdan qurollantirish asosiy maqsadni tashkil etadi. Shu maqsad asosida quyidagi vazifalar qo’yiladi:

1. Uslubshunoslarni to’g’ri tanlash va ularni asosiy talablarni bajarishga yo’llash;
2. Talabalarning ish intizomini mustahkamlash va mas’uliyatini oshirishga doir faoliyatlarni, usullarni qo’llash;
3. Jismoniy tarbiya tadbirlarida milliy qadriyatlardan foydalanishga e’tiborni jalb etish.
4. Amaliyot jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash.

Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy tayyorlashda o’quv amaliyotining mazmuni: hayotiy tajribalar, amaliy sinov ishlari shuni isbotladiki, bitiruvchi talabalarga jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish hamda uni boshqarish bilan bog’liq bo’lgan barcha jarayonlarni o’rgatish kerak. O’zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fani xamda sport ixtisosligida (sport turlari) o’qitilgan, amaliy jihatdan qurollantirilgan mazmunlar asosida o’quv amaliyotini tashkil qilish lozim. Bunda o’quv-trenerovka mashg’ulotlari milliy o’yinlar, ommaviy sog’lomlashtirish tadbirlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari hujjatlarini rasmiylashtirish hamda ular bilan aloqador faoliyatlarni o’z ichiga oladi. O’quv amaliyoti mazmuni quyidagi faoliyatlarni o’z ichiga olishi lozim:

- Amaliyot o’tiladigan joyni tanlash, ish jarayonlari va unga rahbarlik xususiyatlari bilan tanishish;
- Amaliyot jarayonida olib boriladigan ishlarni rejalashtirish (shaxsiy ish rejalari);
- Ommaviy sog’lomlashtirish tashkiliy (yillik) sport tadbirlarini (kalendar) rejalashtirish;
- Sport mashg’ulotlarini (trenirovka) uyushtirish bilan bog’liq hujjatlarni (yillik, oylik jadvallar, oylik ish rejalar, konspektlar) tayyorlash;
- Sport musobaqalarni tashkil qilish, ularning nizomlarini tayyorlash;
- Ertalabki badan tarbiya va ishlab chiqarishdagi sog’lomlashtirish mashqlar majmuasini (kompleks) yoki milliy harakatli o’yinlar mazmunini tuzish;
- Ilmiy tadqiqotlar o’tkazish;

-Shahar (tuman) sport qo'mitalari ish faoliyati bilan amaliy tanishish;

-Ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishga ajratilgan moddiy manba'lar asosida smetalar tuzish.

-Amaliyot jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

Jamoatchi yo'riqchi murabbiy va hakamlarni tayyorlash

-O'quv amaliyotining borishini aks ettiruvchi kundalikni tutish;

-Barcha faoliyatlar haqida qisqacha hisobot tayyorlash;

-O'quv amaliyotining boshlanishi va uning yakunlashuviga bag'ishlab anjumanlar o'tkazish.

O'quv amaliyotiga rahbarlik qilish, uni o'tkazish joyi va muddati

O'quv amaliyotiga rahbarlik qilish, uni nazorat etish va ular bilan bog'liq tashkiliy huquqiy hujjatlarni tuzish asosida universitet o'quv bo'lim tomonidan amalga oshiriladi.

Talabalarni ishga taqsimlash komissiyasining (rektor) buyrug'i asosida brigadalar tuzish va ularga uslubiy-amaliy yordam berish, fakultet rahbarlari (vakillari) va kafedralarning yo'riqchi-o'qituvchilari tomonidan boshqariladi.

O'quv amaliyotini yakunlash va baholash tartiblari: guruhlarda o'quv amaliyotini yakunlashga doir tayyorgarlik ishlari oxirgi haftada olib boriladi va talabalar tegishli hujjatlarni (o'quv amaliyoti dasturi asosida) o'quv amaliyoti rahbariga topshiradilar. So'nggi ikki kun davomida yakunlovchi hujjatlarni jismoniy tarbiya nazariyasi uslubiyoti kafedrasida ko'rib chiqiladi, bunda maxsus komissiya tuzilib, unda fakultet o'quv amaliyoti rahbari, ixtisoslik kafedralarining mudirlari (mas'ul xodim), o'quv amaliyoti yo'riqchisi amaliyot o'tkazilgan joyning yo'riqchisi ishtirok etadilar. Talabalar barcha ish faoliyatlari aks ettirilib, ularning mazmuni va talabaning amaliy faoliyati suhbat tariqasida tekshirilib ko'riladi. Yo'riqchilar tayyorlab kelgan baholar talabga javob bersa va suxbat jarayonida u tasdiqlansa, baholar o'zgartirishsiz qoldirilishi mumkin.

Baxolash reyting tizimi talablari asosida bo'lishi taklif etiladi, o'quv yili davomida talabalar sinovdan muvaffaqiyatli o'tsa, u tobora takomillashtirilib boriladi. O'quv amaliyoti mazmunlarini ifoda etuvchi turli xil ko'rgazmalar tashkil qilinishi, va ko'rik-sinovda eng yaxshilari baholanishi, ular moddiy va ma'naviy taqdirlanishi lozim. Bunda talabalar va yo'riqchilarning faoliyatlari asosiy o'rinda turadi.

Xulosa o'rinda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyotning uyg'unligi muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi. Nazariy bilimlarning amaliy mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lanishi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga, mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirishga hamda pedagogik muammolarni hal etish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik amaliyotni tizimli tashkil etish, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va reflektiv faoliyatni yo'lga qo'yish bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, nazariya va amaliyot jarayonining uyg'unligi ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va malakali pedagog kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022-2026-yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyul, PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida” Farmoni.

3. Mirzajonova D., Umarova M., Ashurova G. “Bo'lajak amaliyotchi psixolog kadrlar kasbiy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro – 2008 yil, 70-73 b.

4. Nigmatova M., Nosirova A. “Abu Ali ibn Sino ta'limotida o'qituvchi va tarbiyalanuvchi munosabatlari talqini” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro-2010 yil, 42-45 b.

5. Rasulov A. “Talabaga tayangan ustoz” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro – 2008 yil, 279-281 b.

6. Rasulov R., Umarov A., Toshmatov M. “Jismoniy tarbiya ta'limini chuqurlashtirishda ibn Sinoning ilmiy merosidan foydalanish yo'llari” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro-2010 yil, 89-92 b.

7. Salomov R. “Mutaxassis kadrlar tayyorlashning muhim bosqichlari va davr muammolari” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Toshkent-Jizzax-2009 yil 11 b.

8. Serimbetov P., Abdaliyev S., Elmuratov B. “Jismoniy tarbiya o'qituvchisining ko'p qirrali pedagogik faoliyati haqida” (Ilmiy-amaliy anjuman materiallari) Buxoro-2010 yil., 182-186 b.